



NAMANGAN VILOYATI MINGBULOQ TUMANI HOKIMINING QARORI

2024-yil 24-dekabr

738-6-81-Q/24

Mingbuloq tumani hokimligi

Namangan viloyati hokimining 2024-yil 19-dekabrda "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida" 2024-yil 10-dekabrda PF-214-son Farmoni ijrosi haqida"gi 610-6-0-Q/24-son qarori haqida

Tadbirkorlik subyektlarini moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotgan deb hisoblash uchun asos bo'ladigan muddatni qisqartirish va ularni tugatish tartibini yanada soddalashtirish, tovarlarni import qilishda va tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishda to'lanadigan qo'shilgan qiymat solig'i summalarini o'zaro hisobga olish tartibini qo'llashni kengaytirish, shuningdek, majburiy raqamli markirovkalash jarayonlarini jadallashtirish hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida" 2024-yil 10-dekabrda PF-214-son Farmoni hamda shu mazmundagi viloyat hokimining 2024-yil 19-dekabrda 610-6-0-Q/24-son qarorlari ijrosini ta'minlash maqsadida, "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 21-moddalariga asosan,

QAROR QILAMAN:

- Namangan viloyati hokimining 2024-yil 19-dekabrda 610-6-0-Q/24-son qarori rahbarlik va ijrosini ta'minlash uchun qabul qilinsin.
- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 10-dekabrda PF-214-son Farmoni bilan:
O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlariga ilovaga muvofiq quyidagilarni nazarda tutuvchi o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilganligi:
moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotgan tadbirkorlik subyektlarini belgilash mezonlarini takomillashtirish;
yangidan tashkil qilingan tadbirkorlik subyektlarining rivojlanishini baholash ko'rsatkichlarini maqbullashtirish;
"BBB" toifadagi tadbirkorlik subyektlariga tovarlarni import qilishda va tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishda to'lanadigan qo'shilgan qiymat solig'i summalarini o'zaro hisobga olish tartibini tatbiq etish;
mahalliy pivo mahsulotlarini realizatsiya qilish faoliyatini vakolatli organi xabardor qilish tartibida amalga oshirish belgilanganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.
- Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha birinchi o'rinbosari – iqtisodiyot va moliya bo'limi boshlig'i A.Abdusalomov zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi



A.Mansurov